Shuningdek, 2023-yil 12-mayda qabul qilingan Prezident qarori (PQ–156) bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" tashkil etildi [4].

2025-yil 7-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ–1073) qabul qilindi. Mazkur qonunda issiqxona gazlari chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish tartib-qoidalari, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar hamda uglerod birliklari reyestrini yuritish, shuningdek, issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni ishlab chiqish masalalari belgilab berilgan. Ushbu hujjat ETS yoki uglerod solig'i mexanizmlarini joriy etish uchun muhim normativ asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–110-son Farmoni bilan respublikada xalqaro uglerod savdosi mexanizmlarida ishtirok etishning asosiy tartibi va tamoyillari belgilab berildi. Mazkur farmon asosida xalqaro uglerod birliklari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur institutsional sharoitlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga, Parij bitimining 6.2 va 6.4-moddalariga mos monitoring, hisobot berish va verifikatsiya (MRV) tizimini hamda "corresponding adjustment" mexanizmlarini to'liq shakllantirish masalalari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Bu jarayonlar kelgusida emissiyalar savdosi tizimi (ETS) va boshqa uglerod bozori instrumentlarini samarali integratsiya qilish uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda uglerod bozorini joriy etish uchun zarur institutsional shart-sharoitlarni tizimli tahlil qilish, mavjud huquqiy-normativ bazani baholash hamda xalqaro tajriba asosida amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

birinchidan, uglerod bozorining nazariy-metodologik asoslarini o'rganish;

ikkinchidan, O'zbekistonda mavjud institutsional bazani baholash;

chinchidan, xalqaro tajribani (EU ETS, Xitoy ETS va Koreya ETS) qiyosiy tahlil qilish;

to'rtinchidan, O'zbekiston sharoitida uglerod bozorini bosqichma-bosqich joriy etish modelini taklif etish.

## MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, uglerod bozorlarini nazariy jihatdan o'rganishda bir nechta asosiy ilmiy yo'nalishlar ajralib turadi. R. Coase'ning tranzaksion xarajatlar nazariyasi [5] emissiya huquqlarini savdo qilish g'oyasining nazariy asosini yaratgan. W. Nordhausning iqlim iqtisodiyoti bo'yicha ishlari [6] uglerodni narxlashning iqtisodiy samaradorligini asoslab bergan hamda bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. J. Stiglitz esa axborot assimetriyasi va bozor nosozliklari (market failures) konsepsiyasi [7] doirasida uglerodni narxlashning turli shakllari — soliq va bozor mexanizmlarini — qiyosiy tahlil qilgan.

Emissiyalar savdosi tizimlarining amaliy samaradorligini o'rganishda B. Doda [17] Yevropa Ittifoqining emissiyalar savdosi tizimi (EU ETS) tajribasining dastlabki bosqichlarida yuzaga kelgan kamchiliklar va ulardan olingan saboqlarni chuqur tahlil qilgan. D. Zhang va hammualliflar [18] Xitoydagi pilot emissiyalar

savdosi tizimlarining natijalari hamda ularni milliy miqyosda kengaytirish istiqbollarini o'rgangan. Jahon banki tomonidan muntazam ravishda nashr etib boriladigan "State and Trends of Carbon Pricing" hisobotlari [8] global miqyosda emissiyalar savdosi tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini kuzatish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur hisobotlarga koʻra, 2024-yil holatiga koʻra dunyoda 75 dan ortiq uglerodni narxlash instrumentlari amal qilmoqda va ular global issiqxona gazlari emissiyasining taxminan 23 foizini qamrab oladi. Xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilishda International Carbon Action Partnership (ICAP) ma'lumotlari ham muhim ahamiyatga ega [9].

Markaziy Osiyo kontekstida uglerod bozori masalasini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy adabiyotlar soni nisbatan cheklangan. Mintaqa mamlakatlari — Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Turkmaniston — Oʻzbekiston kabi Parij bitimi ishtirokchilari hisoblanadi. Biroq, ushbu davlatlarning hech birida toʻliq shakllangan emissiyalar savdosi tizimi mavjud emas. Qozogʻiston 2013-yilda pilot ETS tizimini ishga tushirgan boʻlsa-da, u bir necha bor vaqtincha toʻxtatilgan va qayta yoʻlga qoʻyilgan. Ushbu tajriba mintaqada institutsional tayyorgarlikning muhimligini yana bir bor koʻrsatadi.

Oʻzbekistonlik olimlar orasida I. Norqulov va U. Xolbadalovlarning iqlim moliyasi hamda yashil iqtisodiyotga oʻtish masalalariga bagʻishlangan ishlari [10], shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan" (2023) tadqiqoti [2] alohida e'tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, Oʻzbekistonda uglerod bozorini shakllantirishning institutsional shart-sharoitlarini maxsus va tizimli ravishda oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmaganligi mazkur sohada muayyan ilmiy boʻshliq (research gap) mavjudligini koʻrsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bir nechta ilmiy yondashuvlar kompleks ravishda qoʻllanildi. Har bir metod muayyan tadqiqot vazifasiga yoʻnaltirilgan boʻlib, ularning uygʻun qoʻllanilishi muammoni koʻp qirrali tahlil qilish imkonini berdi.

Institutsional tahlil usuli orqali Oʻzbekistonda mavjud huquqiy-normativ baza, davlat organlari tuzilmasi hamda ularning uglerod bozorini tartibga solishdagi roli oʻrganildi. Buning uchun 2019–2024-yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Jami 12 ta asosiy normativ-huquqiy hujjat chuqur oʻrganildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida Oʻzbekistonning institutsional tayyorgarligi boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirma tarzda baholandi. Taqqoslash uchun uch xil ETS modeli tanlandi: Yevropa Ittifoqi ETS (yetuk bozor, absolyut cheklash modeli), Xitoy milliy ETS (rivojlanayotgan mamlakat, intensivlikka asoslangan model) hamda Koreya Respublikasining K-ETS tizimi (oʻrta darajadagi iqtisodiyot, absolyut cheklash modeli). Tanlash mezonlari sifatida mamlakatlarning rivojlanish darajasi, ETS joriy etilish bosqichi, energetika tarkibi hamda institutsional muhit xususiyatlari hisobga olindi.

Hujjatlar kontenti tahlili (document content analysis) usuli orqali xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan Oʻzbekiston boʻyicha tayyorlangan hisobot va tadqiqotlar oʻrganildi. Xususan, Jahon bankining "Innovative Carbon Resource Application for Energy Transition" (iCRAFT) loyihasi natijalari [11], ADBning 2024–2028-yillar uchun Oʻzbekiston boʻyicha mamlakat hamkorlik strategiyasi [12], shuningdek UNDPning iqlim xarajatlari va institutsional sharhi [2] muhim analitik manbalar sifatida xizmat qildi.

SWOT-tahlil usuli Oʻzbekistonda uglerod bozorini joriy etish jarayonining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek mavjud imkoniyatlar va ehtimoliy tahdidlarni tizimli ravishda aniqlash maqsadida qoʻllanildi. Ushbu usul yuqoridagi tahlil natijalarini sintez qilish hamda strategik yoʻnalishlarni aniqlash imkonini berdi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida Milliy statistika qoʻmitasining energetika va sanoat sohalari boʻyicha statistik ma'lumotlari, Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasining hisobotlari, Energetika vazirligining rasmiy ma'lumotlari hamda xalqaro tashkilotlar (World Bank, UNDP, ADB, ICAP)ning ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Tadqiqot davri asosan 2019–2024-yillarni qamrab oladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekiston issiqxona gazlari emissiyasi boʻyicha Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi. Milliy statistika qoʻmitasi hamda Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi ma'lumotlariga koʻra, soʻnggi issiqxona gazlari inventarizatsiyasi 2022-yilda amalga oshirilgan boʻlib, mamlakatning yillik umumiy issiqxona gazlari emissiyasi taxminan 209 million tonna $CO_2$ ekvivalentini tashkil etadi [13]. Energetika sektori ushbu koʻrsatkichning qariyb 64 foizini tashkil etadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining qazib olinadigan yoqilgʻilarga — avvalo tabiiy gazga — yuqori darajada bogʻliqligini koʻrsatadi.

YaIM birligiga toʻgʻri keladigan emissiya intensivligi Oʻzbekistonda mintaqadagi ayrim qoʻshni davlatlarga nisbatan qariyb ikki barobar, global oʻrtacha koʻrsatkichdan olti barobar, Yevropa va Markaziy Osiyo (ECA)

mintaqasi oʻrtacha koʻrsatkichidan esa oʻn sakkiz barobar yuqori ekani qayd etiladi [2]. Bu holat, asosan, energiya samaradorligining nisbatan pastligi hamda ayrim ishlab chiqarish tarmoqlarida eskirgan texnologik bazaning saqlanib qolganligi bilan izohlanadi. Sanoat va qurilish sektori umumiy energiya isteʼmolining 22,3 foizini, transport sektori esa 16,9 foizini tashkil etadi [2]. Uy-joy sektori ham energiya isteʼmoli bilan bogʻliq issiqxona gazlari emissiyasida muhim ulushga ega boʻlib, yiliga taxminan 80 million tonna $CO_2$ ekvivalenti miqdorida emissiya hosil qiladi [14].

Oʻzbekiston hukumati qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTM) quvvatini kengaytirish orqali emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan siyosatni faol amalga oshirmoqda. 2024-yil holatiga koʻra, mamlakatda 1 GVt dan ortiq quyosh elektr stansiyalari quvvati ishga tushirilgan [15]. Xususan, 2023-yilda Samarqand, Jizzax, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 1097 MVt boʻlgan 4 ta quyosh fotoelektr stansiyasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlarida esa umumiy quvvati 1600 MVt boʻlgan 4 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgan. 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushini 30 foizga yetkazish hamda umumiy QTM quvvatini 15 GVt ga oshirish rejalashtirilgan [3]. Ushbu choralar natijasida yiliga taxminan 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash imkoniyati yaratilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sektorining rivojlanishi oʻz-oʻzidan uglerod emissiyalarini yetarli darajada kamaytirishni toʻliq taʼminlamaydi. Mamlakat sanoat bazasi — sement zavodlari, metallurgiya kombinatlari hamda kimyo sanoati korxonalari — hozircha asosan qazib olinadigan yoqilgʻilar asosida faoliyat yuritmoqda. Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda sanoatni ekologik jihatdan modernizatsiya qilish hamda azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan zararli gazlarini kamaytirishga qaratilgan 20 million yevrolik dastur amalga oshirilmoqda [14]. Shu sababli, uglerod narxlash mexanizmlari qoʻshimcha iqtisodiy ragʻbatlantirish vositasi sifatida qayta tiklanuvchi energiya rivojlanishini toʻldiruvchi muhim element hisoblanadi.

Energiya samaradorligi masalasi ham alohida ahamiyatga ega. PQ–436-son qarorga muvofiq, sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish hamda YaIM birligiga toʻgʻri keladigan energiya sarfini 30 foizga kamaytirish maqsad qilib belgilangan [3]. Ushbu maqsadlarga erishish uglerod emissiyalarining sezilarli darajada kamayishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday natijalarga erishish uchun samarali iqtisodiy ragʻbatlantirish mexanizmlarining mavjudligi muhim hisoblanadi. Uglerod narxlash mexanizmlari ana shunday ragʻbatni taʼminlashga xizmat qilishi mumkin.

Oʻzbekistonda uglerod bozorini shakllantirishning huquqiy asoslari bir necha darajada shakllangan. Jadval 1 da asosiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning uglerod bozori elementlari bilan bogʻliqligi keltiriladi.

1-jadval. Uglerod bozorini shakllantirish uchun asos boʻladigan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar[1]

| № | Hujjat nomi | Qabul qilingan sana | Uglerod bozori bilan bog'liqligi |
|---|---|---|---|
| 1 | Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish toʻgʻrisida | 2018 yil (OʻRQ-491) | NDC majburiyatlari, 6-modda mexanizmlari |
| 2 | 2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida | 2022 yil (PQ-436) | issiqxona gazlari kadastri, MRV, uglerod birliklarini roʻyxatga olish |
| 3 | “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida | 2023 yil (PQ-156) | Uglerod savdosi regulyatori, CBAM tahlili |
| 4 | Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida | 2023 yil (PF-81) | Iqlim siyosati koordinatsiyasi |
| 5 | “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida | 2023 yil (PF-158) | Yashil oʻsish, energiya samaradorligi |
| 6 | Yangilangan NDC (2.0) hujjati | 2021 yil | 35% emissiya qisqartirish maqsadi |
| 7 | “Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash toʻgʻrisida”gi Qonun | 2025 yil (OʻRQ-1073) | Issiqxona gazlarini qisqartirish boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlarni belgilash |
| 8 | Xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida | 2025 yil (PF-110) | ITMO turdagi uglerod birliklari savdosi tashkil etilishi belgilandi |
| 9 | Yangilangan NDC (3.0) hujjati | 2025 yil | 50% emissiya qisqartirish maqsadi |

Manba: muallif tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida tuzilgan.

1 Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik maʻlumotlari Milliy Bazasi – www.lex.uz

1-jadvaldan koʻrinib turibdiki, 2018–2025-yillar davomida uglerod bozori uchun zarur boʻlgan qator huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgan. Biroq ushbu hujjatlarning aksariyati uglerod bozorini toʻgʻridan-toʻgʻri tartibga soluvchi aniq mexanizmlarni belgilashdan koʻra, umumiy strategik yoʻnalishlarni belgilashga qaratilgan. Issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash hamda xalqaro uglerod birliklari bozori bilan bogʻliq qonunchilik hujjatlari qabul qilingan boʻlsa-da, maxsus "Uglerod bozori toʻgʻrisida" yoki "Milliy emissiyalar savdosi tizimi toʻgʻrisida" alohida qonun yoki normativ-huquqiy hujjat hali qabul qilinmagan.

2025-yilda qabul qilingan OʻRQ–1073-sonli Qonun Oʻzbekistonda issiqxona gazlari chiqarilishini davlat tomonidan tartibga solishning muhim huquqiy asosini yaratdi. Mazkur qonunda emissiyalar hisobini yuritish, davlat reyestrini shakllantirish, maqsadli koʻrsatkichlarni belgilash hamda xalqaro uglerod birliklari bilan operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmlari nazarda tutilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–436-son qaroriga muvofiq, issiqxona gazlari chiqarilishini davlat tomonidan tartibga solish infratuzilmasi quyidagi asosiy elementlarni oʻz ichiga oladi: issiqxona gazlari emissiyalarining davlat kadastrini yuritish; uglerod birliklarining milliy reyestrini shakllantirish; iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlarni belgilash; hamda emissiyalarni qisqartirishga qaratilgan faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash [3].

2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha asosiy issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring, hisobot berish va tekshirish (Monitoring, Reporting and Verification — MRV) tizimini joriy etish nazarda tutilgan edi. Biroq ushbu tizimni toʻliq shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich davom etmoqda.

Institutsional tuzilma nuqtai nazaridan qaraganda, uglerod bozorini tartibga solish vazifalari bir nechta davlat organlari oʻrtasida taqsimlangan. Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi (2023-yilda tashkil etilgan) iqlim siyosatini umumiy muvofiqlashtirish uchun masʼul hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" uglerod savdosi mexanizmlarini rivojlantirish bilan bogʻliq tashkiliy va tahliliy funksiyalarni bajarishi koʻzda tutilgan [4]. Energetika vazirligi esa energetika sektori boʻyicha siyosatni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi, chunki ushbu sektor mamlakatdagi umumiy emissiyalarning kamida 60 foizini tashkil etadi [15]. Gidrometeorologiya xizmati agentligi esa MRV tizimining texnik va metodologik bazasini taʼminlashda ishtirok etadi.

Shu bilan birga, koʻp agentli institutsional tuzilma ayrim hollarda muvofiqlashtirish jarayonlarini murakkablashtirishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, uglerod bozorini samarali boshqarish uchun aniq belgilangan vakolatlarga ega boʻlgan yagona yoki markaziy regulyator organ muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yevropa Ittifoqining emissiyalar savdosi tizimida (EU ETS) milliy darajada maxsus emissiya regulyatori yoki tegishli vakolatli organlar tizimni boshqaradi, Xitoyda esa Ekologiya va atrof-muhit vazirligi markaziy regulyator sifatida faoliyat yuritadi [9]. Oʻzbekistonda esa tegishli funksiyalar hozircha bir nechta tashkilotlar oʻrtasida taqsimlangan holda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 2023-yil 1-iyundan boshlab "yashil sertifikatlar" tizimini joriy etish nazarda tutilgan edi [3]. Ushbu tizim mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida ekologik talablar va atrof-muhitga taʼsir koʻrsatkichlarini hisobga olishga qaratilgan boʻlib, uglerod bozori mexanizmlari bilan bevosita bogʻliq boʻlmasa-da, korxonalarda ekologik hisobot yuritish va barqaror ishlab chiqarish tamoyillarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uglerod bozorini muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish Oʻzbekiston uchun eng maqbul yondashuvni tanlashda muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, 2-jadvalda uchta yetakchi emissiyalar savdosi tizimining asosiy parametrlari keltirilgan.

2-jadval. Xalqaro emissiyalar savdosi tizimlarining qiyosiy tahlili

| Koʻrsatkich | EU ETS | Xitoy ETS | K-ETS (Koreya) |
|---|---|---|---|
| Ishga tushirilgan yili | 2005 | 2021 | 2015 |
| Qamrov | Sanoat, energetika, aviatsiya, dengiz transporti | Elektr energiya ishlab chiqarish sektori | Sanoat, energetika, aviatsiya, binolar |
| Cheklash turi | Absolyut (cap-and-trade) | Intensivlikka asoslangan | Absolyut (cap-and-trade) |
| Qamrab olingan emissiya | ~2 mlrd t $CO_2$, YI emissiyaning ~40% | ~5 mlrd t $CO_2$ | ~0,6 mlrd t $CO_2$, ~74% |
| Uglerod narxi (2024) | ~65 yevro/t$CO_2$ | ~10 dollar/t$CO_2$ | ~8-10 dollar/t$CO_2$ |
| MRV tizimi | Toʻliq shakllangan, mustaqil tekshiruv | Rivojlanish bosqichida | Shakllangan |

Manba: ICAP [9], Jahon banki [8] maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qiyosiy tahlil natijalaridan koʻrinib turibdiki, emissiyalar savdosi tizimlari turli darajadagi institutsional tayyorgarlikka ega mamlakatlarda turli shakllarda joriy etilgan. Yevropa Ittifoqining emissiyalar savdosi tizimi (EU ETS) 2005-yilda ishga tushirilgan boʻlib, hozirda uning toʻrtinchi bosqichi (2021–2030) amalga

oshirilmoqda. Ushbu tizim o'zining dastlabki kamchiliklaridan saboq olgan holda takomillashib borgan eng yetuk mexanizmlardan biri hisoblanadi. Dastlabki bosqichda kvotalarning ortiqcha taqsimlanishi natijasida uglerod narxi deyarli nol darajaga tushgan bo'lsa-da, keyingi islohotlar — kvotalarni auksion orqali taqsimlash, chiziqli qisqartirish koeffitsientini joriy etish — bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan [9].

Xitoy tajribasi O'zbekiston uchun alohida qiziqish uyg'otadi, chunki u rivojlanayotgan mamlakat sharoitida uglerod bozorini joriy etishning muqobil modelini namoyish etadi. Xitoy 2013–2017-yillar davomida yetti pilot ETS tizimini sinovdan o'tkazgan va 2021-yildan boshlab milliy miqyosda, dastlab elektr energetikasi sektorini qamrab olgan tizimni ishga tushirgan [9]. Xitoy modeli absolyut emissiya cheklovlari o'rniga intensivlikka asoslangan ko'rsatkichlardan foydalanadi. Bu yondashuv iqtisodiy o'sishni cheklamasdan emissiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu model tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, jumladan O'zbekiston uchun ham muhim tajriba bo'lishi mumkin.

Koreya Respublikasi tajribasi esa institutsional tayyorgarlikning muhimligini ko'rsatadi. K-ETS joriy etilishidan oldin mamlakatda besh yil davomida issiqxona gazlari kadastri tizimi, MRV infratuzilmasi hamda bozor regulyatori shakllantirilgan. K-ETS tizimi mamlakatdagi umumiy emissiyalarning taxminan 74 foizini qamrab oladi va sanoat, energetika, aviatsiya hamda bino-inshootlar sektorlarini o'z ichiga oladi [9].

EU ETS tajribasidan olinadigan muhim saboqlardan biri bozor barqarorligini ta'minlash zaruratidir. Yevropa tajribasining birinchi bosqichida kvotalarning ortiqcha taqsimlanishi natijasida 2007-yilga kelib uglerod narxi deyarli nol darajaga tushib ketgan. Bu holat emissiyalarni kamaytirish rag'batini pasaytirgan hamda tizimga bo'lgan ishonchni susaytirgan [17]. Keyingi islohotlar — auksion mexanizmini joriy etish, chiziqli kamayish koeffitsienti hamda Bozor barqarorligi zaxirasi (Market Stability Reserve — MSR) mexanizmini yaratish — tizimni barqarorlashtirishga xizmat qilgan. Natijada 2024-yilda EU ETS doirasida uglerod narxi o'rtacha 65 yevroga (taxminan 70 AQSh dollari) yetgan [9]. Shu yil davomida tizim orqali jami 38,8 milliard yevro daromad shakllangan bo'lib, uning asosiy qismi iqlim va energetika loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Bu tajriba uglerod bozori to'g'ri loyihalashtirilganda nafaqat emissiyalarni kamaytirish, balki "yashil o'tish" uchun muhim moliyaviy resurslarni shakllantirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Xitoyning pilot ETS tizimlari (2013–2017) tahlili ham qimmatli saboqlarni beradi. Yetti pilot tizim Pekin, Shanxay, Guandun, Shenchjen, Xubey, Chunsin va Tyanszin hududlarida joriy etilgan hamda turli dizayn yondashuvlarini sinovdan o'tkazish imkonini bergan [18]. Ushbu tajriba milliy miqyosda ETS tizimini joriy etishdan avval mintaqaviy yoki sektoral pilot loyihalarni amalga oshirish muhim ekanini ko'rsatadi. Bu esa tizimning zaif tomonlarini aniqlash va ularni takomillashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun ham bevosita milliy ETS tizimini joriy etishdan ko'ra, dastlab energetika sektorida pilot loyiha boshlash maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillarni umumlashtirish maqsadida O'zbekistonda uglerod bozorini shakllantirish imkoniyatlari SWOT-tahlil asosida baholandi.

Kuchli tomonlar (Strengths). O'zbekiston hukumati tomonidan iqlim siyosatiga qaratilgan strategik yondashuv va tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi muhim omil hisoblanadi. Parij bitimiga qo'shilish hamda aniq NDC maqsadlarining belgilanishi (YaIM birligiga emissiyalarni 50 foizga kamaytirish) mamlakatning xalqaro majburiyatlarini aks ettiradi. Jahon bankining iCRAFT loyihasi doirasida 1 million tonna $CO_2$ emissiyasini qisqartirish natijasida 15 million AQSh dollari miqdoridagi birinchi uglerod kreditlari to'lovining olinishi O'zbekiston uchun xalqaro uglerod bozorlariga kirish yo'lida muhim tajriba bo'ldi [11]. Shuningdek, "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi"ning tashkil etilishi institutsional bazani mustahkamlashga xizmat qildi.

Zaif tomonlar (Weaknesses). Asosiy cheklovlardan biri — maxsus uglerod bozori bo'yicha qonunchilik bazasining hali to'liq shakllanmaganligidir. Issiqxona gazlari kadastri tizimi to'liq joriy etilmagan, MRV tizimi esa rivojlanishning dastlabki bosqichida. Energetika sohasidagi subsidiyalar ayrim hollarda bozor mexanizmlarining samarali ishlashini murakkablashtirishi mumkin. Bundan tashqari, uglerod bozori, MRV tizimi hamda emissiyalar hisobini yuritish sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarida emissiyalar bo'yicha hisob yuritish va hisobot berish amaliyoti ham bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Imkoniyatlar (Opportunities). Parij bitimining 6-moddasi doirasidagi xalqaro uglerod savdosi mexanizmlari O'zbekiston uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Yevropa Ittifoqining uglerod chegaraviy moslashuv mexanizmi (Carbon Border Adjustment Mechanism — CBAM) 2026-yildan to'liq kuchga kirishi eksport qiluvchi korxonalarni uglerod hisobini yuritish tizimlarini joriy etishga undaydi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda Yashil iqlim fondi (Green Climate Fund — GCF) kabi xalqaro moliya institutlari tomonidan texnik yordam va moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sektorining jadal rivojlanishi (2030-yilgacha 15 GVt quvvat) uglerod kreditlarini yaratish salohiyatini oshiradi.

Tahdidlar (Threats). Energiya subsidiyalarini bosqichma-bosqich isloh qilish jarayonida ijtimoiy ta'sirlarni hisobga olish muhimdir. Bundan tashqari, xalqaro uglerod bozorlaridagi narxlarning o'zgaruvchanligi investorlar qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mintaqaviy energetika xavfsizligi masalalari ham e'tibordan chetda

qolmasligi zarur. Shu bilan birga, institutsional boshqaruv tizimida shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash muhim vazifa bo'lib qoladi.

2024-yil iyun oyida O'zbekiston uglerod emissiyasini siyosiy kreditlash (policy crediting) mexanizmi orqali xalqaro uglerod kreditlari bo'yicha birinchi to'lovni olgan davlatlardan biri bo'ldi [11]. Jahon bankining Transformative Carbon Asset Facility (TCAF) jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan iCRAFT (Innovative Carbon Resource Application for Energy Transition) loyihasi doirasida O'zbekiston 1 million tonna CO□ emissiyasini mustaqil tasdiqlangan tarzda qisqartirdi va buning evaziga 15 million AQSh dollari miqdorida mablag' oldi [11].

iCRAFT loyihasi bir necha jihatdan muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, u energetika siyosati islohotlarini — energiya subsidiyalarini optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish choralarini — uglerod kreditlariga aylantirish mexanizmini sinovdan o'tkazdi. Ikkinchidan, loyiha doirasida MRV tizimini shakllantirish hamda Parij bitimining 6-moddasiga mos keluvchi monitoring va verifikatsiya standartlarini joriy etish bo'yicha muhim tajriba to'plandi. Uchinchidan, ushbu loyiha orqali xalqaro uglerod bozorlariga integratsiya uchun zarur bo'lgan institutsional va texnik infratuzilmani shakllantirish jarayoni boshlandi.

Loyiha keng ko'lamli bo'lib, iCRAFT doirasida jami 60 million tonna $CO_2$ emissiyasini qisqartirish maqsad qilingan. Transformative Carbon Asset Facility (TCAF) tomonidan taxminan 2,5 million tonna $CO_2$ ekvivalenti miqdoridagi uglerod kreditlarini xarid qilish hamda taxminan 45 million AQSh dollari miqdorida moliyaviy mablag' jalb etish rejalashtirilgan. Qolgan uglerod kreditlarini esa O'zbekiston xalqaro bozorlarda mustaqil ravishda realizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kutilmoqda [11].

Xalqaro tajriba hamda O'zbekistonning hozirgi institutsional tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda, tadqiqotda uglerod bozorini bosqichma-bosqich joriy etishning uch bosqichli modeli taklif etiladi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda uglerod bozorini bosqichma-bosqich joriy etish modeli

[Rasm tavsifi: Uch bosqichli diagramma ko'rinishidagi model. I bosqich (2025–2027): Tayyorgarlik – MRV tizimini to'liq ishga tushirish, issiqxona gazlari kadastrini yakunlash, huquqiy bazani mustahkamlash, pilotni rejalashtirish. II bosqich (2028–2030): Pilot ETS – energetika sektorida intensivlikka asoslangan pilot emissiyalar savdosi tizimini ishga tushirish, ixtiyoriy uglerod bozorini (VCM) rivojlantirish. III bosqich (2030 dan keyin): Kengaytirish – qamrovni sanoat, transport va binolar sektorlariga kengaytirish, absolyut cheklovlarga o'tishni boshlash, xalqaro bozorlar bilan integratsiya.]

I bosqich (2025–2027) – Tayyorgarlik. Bu bosqichda asosiy e'tibor institutsional bazani mustahkamlashga qaratiladi. Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: birinchidan, MRV tizimini to'liq joriy etish — barcha yirik sanoat va energetika korxonalarida emissiyalarni hisobga olish, hisobot berish va mustaqil tekshirish tizimini yo'lga qo'yish; ikkinchidan, issiqxona gazlari kadastrini yakunlash — tarmoqlar bo'yicha emissiyaning bazaviy ko'rsatkichlarini aniqlash; uchinchidan, uglerod bozori to'g'risidagi maxsus qonunchilik bazasini ishlab chiqish va qabul qilish; to'rtinchidan, kadrlar tayyorlash — xalqaro hamkorlik asosida kamida 200–300 nafar mutaxassisni emissiya hisobini yuritish va savdo mexanizmlari bo'yicha tayyorlash.

II bosqich (2028–2030) – Pilot ETS. Xitoy tajribasiga o'xshash tarzda dastlab energetika sektorida intensivlikka asoslangan pilot emissiyalar savdosi tizimini ishga tushirish taklif etiladi. Energetika sektorining tanlanish sababi shundaki, u mamlakat umumiy emissiyasining qariyb 64 foizini tashkil etadi hamda nisbatan kam sonli, lekin yirik korxonalarni o'z ichiga oladi, bu esa monitoring va nazoratni osonlashtiradi. Shu bilan birga, iCRAFT tajribasiga tayanib, ixtiyoriy uglerod bozori (Voluntary Carbon Market — VCM) segmentini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi.

III bosqich (2030 yildan keyin) – Kengaytirish. Pilot bosqich natijalarini tahlil qilgan holda tizim qamrovini sanoat (sement, metallurgiya, kimyo sanoati), transport va binolar sektorlariga bosqichma-bosqich kengaytirish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, intensivlikka asoslangan ko‘rsatkichlardan absolyut cheklovlarga (cap-and-trade) o‘tishni boshlash hamda Parij bitimining 6-moddasi doirasida xalqaro bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish rejalashtiriladi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda uglerod bozorini shakllantirish uchun muhim institutsional shart-sharoitlar mavjudligini, biroq ularning ayrimlari hali yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatdi. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil bir nechta muhim xulosalarni beradi.

Birinchidan, O‘zbekistonning iCRAFT loyihasi doirasidagi tajribasi siyosiy kreditlash (policy crediting) modelining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali ekanligini ko‘rsatdi. Jahon banki ta’kidlashicha, bu loyiha uglerod moliyasini siyosiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llashning dunyodagi birinchi tajribalaridan biridir [11]. Bu model an’anaviy loyiha asosidagi kreditlash mexanizmlaridan (masalan, Toza rivojlanish mexanizmi — Clean Development Mechanism) farqli ravishda butun sektor miqyosidagi siyosiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi.

Ikkinchidan, EU ETS tajribasining dastlabki bosqichlari ko‘rsatganidek, uglerod bozorini boshlang‘ich davrda juda qat’iy cheklovlar bilan joriy etish maqsadga muvofiq emas. 2005–2007-yillarda bepul kvotalarning ortiqcha taqsimlanishi uglerod narxining deyarli nolga tushishiga va tizim samaradorligining pasayishiga olib kelgan [9]. Shu sababli, O‘zbekiston uchun Xitoyning intensivlikka asoslangan modeli — ishlab chiqarish birligiga to‘g‘ri keladigan emissiyani kamaytirish — boshlang‘ich bosqich uchun maqbulroq hisoblanadi.

Uchinchidan, Koreya tajribasi MRV tizimini to‘liq shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi. K-ETS joriy etilishidan oldin Koreya hukumati besh yil davomida issiqxona gazlari kadastr tizimini shakllantirib, korxonalarda emissiyalarni hisobga olish amaliyotini rivojlantirgan. O‘zbekistonda bu jarayon hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lgani sababli, taklif etilayotgan modelning birinchi bosqichi aynan MRV infratuzilmasini yaratishga qaratilgan.

To‘rtinchidan, CBAM omili O‘zbekiston uchun muhim tashqi turtki hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining uglerod chegaraviy moslashuv mexanizmi 2026-yildan to‘liq kuchga kiradi va temir, po‘lat, sement, alyuminiy, o‘g‘itlar hamda vodorod eksportiga uglerod to‘lovlarini qo‘llaydi [9]. Milliy uglerod narxlash mexanizmini joriy etish bu to‘lovlarning bir qismini kompensatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: O‘zbekiston sharoitida uglerod bozorini shakllantirishning institutsional shart-sharoitlari tizimli tahlil qilindi; xalqaro tajriba (EU ETS, Xitoy ETS, K-ETS) milliy kontekstga moslashtirilgan holda qiyosiy o‘rganildi; hamda uglerod bozorini joriy etishning uch bosqichli modeli taklif etildi.

Tadqiqot natijalari Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, Energetika vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi uchun uglerod bozorini joriy etish bo‘yicha siyosat tavsiyalari sifatida foydalanilishi mumkin. Taklif etilgan model xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, ADB, UNDP) bilan hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishda ham amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Korxonalar darajasidagi emissiya ma’lumotlarining to‘liq ochiq emasligi chuqur miqdoriy tahlil o‘tkazishni chekladi. Shuningdek, uglerod narxlashning makroiqtisodiy ta’siri CGE (Computable General Equilibrium) kabi modellar yordamida baholanmadi; bu kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Energetika subsidiyalarini isloh qilish masalasi uglerod bozorining samaradorligi uchun muhim omildir. Hozirgi vaqtda elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlari davlat tomonidan tartibga solinadi va bozor narxlaridan past darajada qolmoqda. 2026-yildan boshlab elektr energiyasi va tabiiy gazning ulgurji bozoriga o‘tish rejalashtirilgan [14], bu esa uglerod narxlash mexanizmining samarali ishlashi uchun muhim sharoit yaratadi.

Mintaqaviy integratsiya istiqbollari ham e’tiborga loyiq. O‘zbekiston 2030-yildan boshlab ortiqcha yashil elektr energiyasini Ozarbayjon orqali Yevropaga eksport qilishni — “Markaziy Osiyo – Ozarbayjon – Yevropa yashil energiya koridori” loyihasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda [15]. Bu loyiha uglerod kreditlarini xalqaro bozorlarda sotish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Nihoyat, ijtimoiy adolat va “adolatli o‘tish” (just transition) masalasi ham muhimdir. EU ETS tajribasi uglerod narxlash ayrim ijtimoiy guruhlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu sababli, O‘zbekistonda uglerod bozori daromadlarining bir qismini ijtimoiy himoya dasturlari, kadrlarni qayta tayyorlash va aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda uglerod bozorini shakllantirishning institutsional shart-sharoitlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mamlakat uglerod bozorini joriy etish uchun zarur bo‘lgan dastlabki institutsional asoslarni shakllantirgan, biroq to‘liq tayyorgarlik darajasiga hali yetmagan. Parij bitimiga qo‘shilish, NDC maqsadlarining belgilanishi hamda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategik doirasining qabul qilinishi muhim ijobiy qadamlar sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, bir qator institutsional bo'shliqlar aniqlangan: xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish tartibini to'liq tartibga soluvchi maxsus me'yoriy hujjatning mavjud emasligi, MRV tizimining to'liq ishga tushirilmaganligi, issiqxona gazlari kadastri bazasining yakunlanmaganligi, energetika sektori subsidiyalarining bozor mexanizmlariga to'sqinlik qilishi hamda malakali kadrlar yetishmasligi.

Jahon banki ishtirokidagi iCRAFT loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va siyosiy kreditlash modeli orqali birinchi uglerod kreditlari to'lovining olinishi O'zbekistonning xalqaro uglerod bozorlariga kirish salohiyatini ko'rsatdi. Bu tajriba kelajakda milliy uglerod bozorini rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi.

Xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv — Xitoyning intensivlikka asoslangan modeli asosida dastlab energetika sektorida pilot ETS tizimini ishga tushirish va uni bosqichma-bosqich kengaytirishdir. Bu yondashuv mamlakat iqtisodiyotining o'sish bosqichida ekanligi va sanoat bazasini modernizatsiya qilish zaruratini hisobga oladi.

2025-yil iyul oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi Qonuni hamda Prezidentning PF-110-son Farmoni xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etishning huquqiy asosini yaratdi. Mazkur hujjatlarga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan maxsus Nizomni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Tadqiqot natijalari va xalqaro tajribadan kelib chiqib, ushbu Nizomga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lgan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Davlat boshqaruvi organlari uchun

Ishlab chiqilayotgan Nizomda quyidagi mexanizmlarni mustahkamlash tavsiya etiladi:

- faoliyatni bosqichma-bosqich tasdiqlash tizimi: dastlabki rozilik xati (Letter of No Objection), faoliyatni rasmiy tasdiqlash xati (Letter of Approval) hamda kooperativ yondashuvni alohida avtorizatsiya qilish tartibini o'z ichiga olgan uch bosqichli ruxsat berish mexanizmini joriy etish;
- verifikatsiyalangan uglerod birliklarining kamida 20 foizini NDC majburiyatlarini bajarish hamda "overselling" xavfini kamaytirish maqsadida savdoga chiqarmaslik normasini belgilash;
- xalqaro bozorda tan olingan standartlar — Gold Standard, Verified Carbon Standard, REDD+ hamda Parij bitimining 6.4-moddasi mexanizmlarini ruxsat etilgan kreditlash tizimlari sifatida tan olish;
- barcha uglerod birliklarini qamrab oluvchi yagona Milliy uglerod birliklari reyestrini joriy etish;
- davlat ishtirokidagi loyihalar uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni raqobatli tanlov asosida saralash hamda xizmat haqi uglerod birliklari sotilgandan keyin to'lanishini nazarda tutish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari va DXSh asosida amalga oshiriladigan loyihalarda ITMO turidagi uglerod birliklarini yaratish bo'yicha investitsiya loyihalarini tanlov (tender) mexanizmlari orqali saralash;
- VER turidagi loyihalarni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish;
- Parij bitimining 13-moddasi talablariga muvofiq MRV tizimini barcha yirik korxonalarda to'liq joriy etish;
- energetika sektori subsidiyalarini bosqichma-bosqich isloh qilish.

2. Moliyaviy mexanizmlar uchun

Nizomda xalqaro bozorda sotilgan har bir uglerod birligi uchun davlat byudjetiga yig'im undirish mexanizmini belgilash maqsadga muvofiq. Xalqaro tajriba asosida ushbu yig'im miqdori loyihalar rentabelligini saqlagan holda belgilanishi lozim. Yig'imdan tushgan mablag'larning bir qismini iqlimga moslashuv dasturlari va ekologiya jamg'armasiga yo'naltirish tavsiya etiladi. Shuningdek, verifikatsiyalangan birliklarning kichik qismini global emissiyalarni kamaytirish maqsadida bekor qilish (cancellation) mexanizmini joriy etish Parij bitimining 6-moddasi talablariga muvofiqlikni ta'minlaydi.

3. Sanoat korxonalari uchun

- emissiyalarni ixtiyoriy hisobga olish va hisobot berish amaliyotini joriy etish;
- xalqaro standartlar asosida uglerod kreditlash loyihalarini ishlab chiqish;
- energiya samaradorligi va toza texnologiyalarni joriy etish;
- kelajakdagi majburiy ETS talablariga tayyorgarlik sifatida ichki uglerod narxlash (internal carbon pricing) mexanizmini joriy etish.

4. Investorlar uchun

- O'zbekistonda ixtiyoriy uglerod bozori (VCM) segmentida loyihalar ishlab chiqish imkoniyatlarini o'rganish;
- Nizomda belgilangan ruxsat berish tartibi va moliyaviy parametrlarni hisobga olgan holda loyiha iqtisodiyotini oldindan baholash;
- Parij bitimining 6-moddasi doirasidagi xalqaro uglerod savdosi mexanizmlaridan foydalanish.

5. Xalqaro tashkilotlar uchun

- MRV tizimini joriy etish va kadrlar tayyorlash bo'yicha texnik yordam dasturlarini davom ettirish;
- milliy uglerod reyestri infratuzilmasini yaratishda texnik va moliyaviy ko'mak berish;
- pilot ETS tizimini joriy etish jarayonida metodologik yordam ko'rsatish;
- Markaziy Osiyo miqyosida integratsiyalashgan uglerod bozorini yaratish istiqbollarini o'rganish.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: uglerod narxlashning O'zbekiston iqtisodiyotiga makroiqtisodiy ta'sirini CGE modellar yordamida baholash; NDC uchun saqlash normasi va davlat yig'imining loyihalar rentabelligiga ta'sirini miqdoriy tahlil qilish; uglerod bozorining sektorlar bo'yicha (energetika, sanoat, transport) differensial ta'sirini o'rganish; hamda Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiyalashgan uglerod bozorini shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. O'zbekiston Respublikasining Milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC). – Toshkent, 2021. – 45 b.
2. Ward, J. et al. Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan / UNDP, AFD, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. – Toshkent, 2023. – 120 p.
3. Coase, R. The Problem of Social Cost // The Journal of Law and Economics. – 1960. – Vol. 3. – P. 1–44.
4. Nordhaus, W. Climate Change: The Ultimate Challenge for Economics // American Economic Review. – 2019. – Vol. 109, №6. – P. 1991–2014.
5. Stiglitz, J. Addressing Climate Change through Price and Non-Price Interventions // European Economic Review. – 2019. – Vol. 119. – P. 594–612.
6. World Bank. State and Trends of Carbon Pricing 2024. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2024. – 112 p.
7. International Carbon Action Partnership (ICAP). Emissions Trading Worldwide: Status Report 2024. – Berlin: ICAP, 2024. – 98 p.
8. Norqulov, I., Xolbadalov, U. va boshq. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish: institutsional asoslar va moliyaviy mexanizmlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №5. – B. 15–28.
9. World Bank. Uzbekistan Receives $7.5 Million in Carbon Credits for Enabling Half a Million Tons of Emissions Reduction [Elektron resurs]. – 2024. – URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/06/21/uzbekistan-receives-7-5-million-in-carbon-credits
10. Asian Development Bank. Country Partnership Strategy: Uzbekistan, 2024–2028. – Manila: ADB, 2024. – 68 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Issiqxona gazlari inventarizatsiyasi hisoboti. – Toshkent, 2023.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari [Elektron resurs]. – URL: https://nsdg.stat.uz
13. Mamadaminov, U. O'zbekistonda uglerod bozorini shakllantirish istiqbollari: Yevropa iqtisodiyot kunlari dokladida ma'ruza // Gazeta.uz. – 2024. – 11 noyabr.
14. Corporate Solutions Limited, Guidehouse, Tractebel. A Carbon-Neutral Electricity Sector in Uzbekistan: Summary for Policymakers. – 2021. – 35 p.
15. Doda, B. Emissions Trading: Lessons Learnt from the EU Emissions Trading Scheme // Wiley Interdisciplinary Reviews: Climate Change. – 2016. – Vol. 7, №4. – P. 583–595.
16. Zhang, D. et al. Emissions trading in China: Progress and prospects // Energy Policy. – 2014. – Vol. 75. – P. 9–16.
17. "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – O'RQ-1073. – 2025.
18. Expertise France / GETAP. Terms of Reference: Uzbek Expert on Carbon Market and CBAM. – Paris, 2024.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz